

## Investitsiyalarni Kafolatlashning Huquqiy Asoslari: Muammolar Va Yechimlar

**Rizaqulov Asadbek Ravshan o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya mulki va uning himoyasini amalga oshirishdagi usullar va O'zbekiston Respublikasida investitsiya kafolati turlari atroficha muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada chet el tajribasining O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlili va muammo hamda ularga yechimlar va uning natijalari bo'yicha olingan xulosalar taklif sifatida kiritildi. Ushbu maqolani o'rganish investitsiya munosabatlarida investitsiyani kafolatlashga doir muammolarni batafsilroq o'rganish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** investor, investitsiya shartnomasi, valyutani repatriatsiyasi, reinvestitsiya, rekvizitsiya (ekspropriatsiya), maxsus soliq to'lovi rejimi.

Boshqa huquq sohalar singari investitsiya faoliyatining erkinligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, investitsiya mulki, shu jumladan, investorlarning nomulkiy huquqlariga bo'lgan kafolatlarni so'zsiz ta'minlash, investitsiya munosabati ishtirokchilari huquqlarni ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining investitsiya mulkiy munosabatlariga noqonuniy aralashuvini cheklash maqsadida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq, har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Investitsiya faoliyati qonunchiligiga ko'ra, investitsiya huquqining vujudga kelish asoslari sifatida yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushli tarzda, shu jumladan, mol-mulk va aksiyalar (ulushlar) sotib olish yo'li bilan ishtirok etish; O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni, jumladan qarz majburiyatlarini olish; mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqini, mualliflik huquqlarini, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xau, ishchanlik obro'sini (gudvillni) olish; yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni, boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini olish. konsessiyalarni olish, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, o'zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga doir konsessiyalarni olish, shuningdek mahsulot taqsimotiga oid bitimlarda ishtirok etish; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa asoslar ko'rsatib o'tilgan. Albatta bu taxminiy va to'liq bo'lmagan ro'yxat hisoblanadi.

O'z navbatida, investitsiya faoliyatining amalga oshirish turlari mavjud bo'lib ular bir qancha asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi:

1. Belgilangan obyektiga ko'ra;
  - a. Kapital

- b. Moliyaviy
- c. Ijtimoiy
2. Investitsiyalash manbaiga ko'ra;
  - a. Davlat
  - b. Xususiy
3. Investitsiya miqdoriga ko'ra;
  - a. Yirik investitsiyalar (10mln AQSH dollar)
  - b. Kichik investitsiyalar( 5mln AQSH dollar va undan kam miqdorda)
4. Investorning huquqiy maqomidan kelib chiqib:
  - a. Chet el investitsiyasi
  - b. Mahalliy investitsiya <sup>1</sup>

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar yuqoridagi belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Xo'sh, investorlar o'zlarining huquqlarini qanday qilib ikkinchi tomon ya'ni davlat bilan qanday belgilashi mumkin?

Asosan, bu holatda investor va davlat o'rtasida tuzilgan investitsiya shartnomasi asosiy rol o'ynaydi. Davlat o'zining qonunda mavjud kafolatlarini investorga taklif qiladi. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va investitsiya faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi" Qonunda investorlarning huquqlari va ularga beriladigan kafolatlar aniq, ravshan normalar sifatida belgilangan.

Ular:

1. Investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari: Davlat investitsiya faoliyatida kafolatlarni taminlaydi, davlat organi yoki mansabdor shaxslar ularni buzishga haqli emas, qoidabuzarlik mavjudligi faktidan investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya faoliyatiga bog'liq bo'lmagan boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas. investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi
2. Mablag'lardan foydalanish kafolatlari: Investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlari soliqlar va to'lovlar to'langanidan keyin uning xohishiga ko'ra reinvestitsiya qilinishi yoki ulardan boshqa har qanday usulda foydalanilishi mumkin: Chet el va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishni davlat organlari tomonidan cheklash yoxud ularni majburan yechib olish faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.
3. Mablag'larni erkin o'tkazish kafolatlari: va O'zbekiston Respublikasidan cheklovlersiz erkin o'tkazish, shu jumladan valyutani repatriatsiya qilish uchun ayirboshlash kafolatlanadi
4. Investitsiya faoliyati tugatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari: Chet ellik investor investitsiya faoliyatini tugatgandan so'ng investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o'z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega.
5. Investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlar: O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirgan taqdirda, investitsiya qilish paytida amalda bo'lgan qonunchilikni o'n yil mobaynida qo'llash to'g'risidagi kafolat quyidagi hollarda qo'llaniladi:

---

<sup>1</sup> O. Oqyulov, N. Imamov, SH. Ro'zinazarov, B. Samarxodjaye, I. Rustambekov, Q. Mexmonov, E. Musayev, O'. Sayidaxmedov, A.Tojiboyev, A.Ibragimova, A. Jumagulov – "Investitsiya huquqi" darslik

6. Oshkoralik va ochiqlikni ta'minlash kafolatlari: Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan o'z rasmiy veb-saytida investitsiya faoliyati sohasida o'zining ishtiroki va qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborotni e'lon qilishi shart.
7. Investitsiyalarni himoya qilish: Investorlarning investitsiyalari va boshqa aktivlari natsionalizatsiya qilinmaydi.
8. Investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari: Investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari, Hukumati tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimini yaratishni, investitsiya loyihalari amalga oshirilishi yuzasidan davlat monitoringi o'tkazilish kabilar hisoblanadi. Agar ushbu kafolat normalari xalqaro shartnomalarga zid tushib qolsa yoki qo'shimcha va yangi holatlar aniqlangan bo'lsa, xalqaro konvensiyalar qollanilishi kerak.

Bu kabi kafolatlar har bir davlatning o'zining iqtisodiy salohiyati, siyosati va xalqaro munosabatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasida kafolatlar mavjud:

Ular:

1. Milliy lashtirish va rekvizitsiya qilishdan oldin investorlarga kompensatsiya to'lash kafolati;
2. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida investerlar uchun noqulay o'zgarishlardan saqlash kafolati;
3. Rossiya hududida Rossiya mulki va olayotgan foydasidan foydalanish kafolati;
4. Chet ellik investorning Rossiyadan tashqariga to'siqsiz eksport qilish huquqining kafolati;
5. Bojxona kafolatlari
6. Doimiy soliq legotasi
7. Rezidentlarga iqtisodiy zonalardan foydalanish kafolati
8. Investorlar uchun Qrim Respublikasi, Sevastapol shahar iqtisodiy zonalaridan erkin foydalanish;
9. Kam soliq va sug'urta ta'riflari rejimi kafolati
10. Innovatsion texnologik markazlardan foydalanish kafolati
11. Vladivostok portlaridan erkin foydalanish kafolati. <sup>2</sup>

Ushbu kafolatlar barcha Rossiyaga investitsiya kiritishni xoxlagan investorlar uchun ta'minlanadi. Rossiya qonunchiligidagi kafolatlar bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi kafolatlar deyarli bir biriga yaqin. Ammo bir qancha kafolatlar bizning qonunchiligimizda mavjud emas yoki to'liq ishga tushirilmagan. Masalan, 1, 4, 9 kabi kafolatlar bizda to'liq tartibga solinmagan. Maqsadli yo'naltirilgan investetsiya egasi Respublika bo'yicha oqsaydigan sohani to'liq ta'minlagandan so'ng, ortgan tovar yoki mahsulotni boshqa davlatlarga sotish masalasida muammolarga duch kelishi hech kimga sir emas. Investorning investitsiyasini kam ta'rifda sug'urtalash rejimi ham xuddi shunday. Chunki Respublikadagi aksariyat sug'urta kompaniyalari xususiy, davlat sug'urta kompaniyalari esa barcha investorlarga kam ta'rifda sug'urtalashga moliyaviy tomondan qodir emas. 10 raqamda nazarda tutilgan kafolat uchun hali O'zbekistonda shart-sharoit yo'q deb o'ylayman. Chunki O'zbekiston chetdan investitsiya jalb qilar ekan, albatta iqtisodiy ko'rsatkichi bizdan yuqori hisoblangan davlatlardan jalb qilishni xohlaydi. Tabiiyki, usha davlatlarda bizning eng yangi innovatsion texnologiyalarimiz ular uchun yangilik emas.

---

<sup>2</sup> Федеральный закон "Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений" от 25.02.1999 N 39-ФЗ

Xuddi shu kabi Xitoy tajribasini ham o'rganimiz. Davlatlar bozor iqtisodiyotiga o'tgandan so'ng ko'pchiligi xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan xuddi bizning mamlakatimiz kabi. Xozir aytib o'tmoqchi bo'lgan asosiy kafolatlar deyarli barcha industrial davlatlarda mavjud. Shuning uchun Xitoyning ajralib turadigan ayniqsa xususiy tadbirkorlik faoliyatida investitsiya kafolatlarini yoritib o'taman. Ular:

1. Yangi tadbirkorlik faoliyatini ishga tushirishda yaxshi sifatdagi ish mablag'lari va mexanizmlarini taminlash, venchur investitsiyalarni maxsus fondlardan moliyalash kafolatlari;
2. Birjaga chiqishga yordam berish kafolati;
3. Startup, informatsiya va konsultatsiya orqali ko'mak ko'rsatish;
4. Boshqaruvga tayyorlash programmalarini bilan taminlash.<sup>3</sup>

Bu kabi kafolatlar bilan Xitoy Xalq Respublikasi, o'zining xususiy milliy investorarini jahon bozorlarini egallashga va o'zini investetsiyalovchi zonaga aylantirishni maqsad qilgani yaqqol ko'rinib turibdi.

Xo'sh, biz ushbu kafolatlarni qonunchiligimizga qo'shimcha sifatida kirgizsak, O'zbekiston va investorlar o'rtasidagi muammolarga yechim topiladimi? Yo'q, albatta. Bu yerda asosiy diqqat qilinishi kerak bo'lgan asosiy jihat bu shartnomanada kelishilgan kafolatlarni ta'minlay olishda, ta'minlashdagi jarayonlarda, shaxslarning huquqiy oqibatga olib keladigan harakat va harakatsizligida. Hozir biz bitta holat bo'yicha ushbu jihatlar qanday investitsiya munosabatlarida muhim ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Bundan bir necha yil oldin foydalanilmayotgan binoni yuz million so'm investitsiya kiritish sharti bilan auksionda sotib olgan edim, — deydi "ISTEL" MCHJ direktori M. Bobojonov.

- Uch milliard so'm atrofida mablag' sarflab, mehmonxona ochdik. Ishni endi boshlaganimizda hokimlik vakillari kelib, obyekt boshqa tadbirkorga berilganini aytdi. Haq-huquqimizni talab qilib juda ko'p idoralarga murojaat etdik. Ayrim tashkilotlar bizdan obyektini olib qo'yish mutlaqo asossiz ekani to'g'risida xat berishdan nariga o'tolmadi. Salkam bir yillik ovoragarchilikdan so'ng tanishlar tavsiyasi bilan Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil - Biznes-ombudsmanga murojaat qildim. Murojaatim o'n besh kun davomida o'rganib chiqildi. Biznes-ombudsman vakili nomimdan sudda qatnashib, yerga egalik huquqimni qaytardi. Hokimlik tomonidan binoni olib qo'yish to'g'risida chiqarilgan qaror noto'g'ri ekani isbotlandi.

Yuqoridagi holatda mansabdor shaxs tamonidan investitsiya faoliyatida investorga nisbatan noqonuniy harakatlar amalga oshirilgan. Xo'sh, aslida qanday holat to'g'ri hisoblanadi ushbu vaziyatda? Hokimiyat rahbari investetsiya shartnomaviy munosabatida tomon sifatida ishtirok etgandan so'ng uning ham olishi va qabul qilishi kerak bo'lgan huquq va majburiyatlari ishga tushadi. Bu O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va investitsiya faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi" Qonunning 13-moddasiga binoan ya'ni ta'monlardan biri majburiyatlarni bajarmaganligi uchun qonuniy javobgarlik belgilangan. Investor investitsiya mablag'ini kiritish uchun yer uchastkasi auksionda yutib olgandan so'ng, belgilangan muddatgacha usha yer uchastkasi investorga tegishli hisoblanadi. Ochiq auksionda investorga ma'lum qilmasdan uning yerini boshqa tadbirkorga olib berishi noqonuniy. Chunki yuqoridagi qonun normasining 4-moddasidagi oshkorlik va qonuniylik prinsiplari buzilgan. Oshkorlik prinsipi buzilganligi yer investordan ruxsat olmasdan yoki unga kompensatsiya to'lamasdan olib qo'yganligida ko'rinadi. Qonuniylikni buzilganligi esa hokim o'z qarori bilan yer uchastkasini boshqa shaxsga berganligida ko'rishimiz mumkin. Chunki hokimliklarning er ajratish huquqi 2022-yil 12-yanvarda Vazirlar Mahkamasining

---

<sup>3</sup> Закон Китайской Народной Республики «Об иностранных инвестициях», принятый 15 марта 2019 года на второй сессии Всекитайского собрания народных представителей 13-го созыва, и ввести его в действие с 1 января 2020 года. 《中華人民共和國外商投資法》已由中國第十三屆全國人民代表大會第二次會議於2019年3月15日通過，自2020年1月1日起施行。

“Elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qarori”da yer ajratish tartibi mustahkamlangan.

Mana shu kabi holatlarga chek qo‘yish maqsadida, Prezidentimiz tamonidan 2019-yil 15-martdagi “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, 1-apreldan tadbirkorlik subyektlarida o‘tkaziladigan tekshirishlarni muvofiqlashtirish va ularning qonuniyligi ustidan nazorat qilish Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga yuklatilgan.

Investitsiya munosabatlarida kafolatlar va ularni taminlash sohasida bir qancha takliflarim mavjud. Birinchidan, mamlakatda investitsiyani moliyaviy jihatdan kafolatlash uchun ya‘ni “adolatli kompensatsiya” va “yetarli kompensatsiya”larni taminlash uchun alohida fond tashkil qilish kerak. Kirib kelayotgan investor yoki mahalliy investor sug‘urtadan qoniqarli yordam ololmaganda, uni xarajatlarini qoplanishiga ishonishi uchun bu zarur deb o‘ylayman. Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarini maxsus investitsiya sharoiti yaratishi va investorlarni jalb qilishi ko‘rsatqichlarini belgilab, axborot berib turadigan reyster yaratilishi. Bu ham investor o‘zining faoliyati uchun joy tanlashi, shu bilan birga hokimlikning tadbirkorlik subyektlari bilan olib borayotgan siyosatini yaqqol ko‘rsatib turadi. Uchinchidan, davlatlar bilan bilan investitsiya almashinish yoki uni yo‘naltirish uchun maxsus birlashmalar yoki tashkilotlar tuzish. Masalan, Rossiya va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi memorandumini singari xalqaro kelishuvlarni misol qilishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya va investitsiya faoliyatining kafolatlari to‘g‘risidagi” qonunning
3. Федеральный закон "Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений" от 25.02.1999 N 39-ФЗ
4. Закон Китайской Народной Республики «Об иностранных инвестициях», принятый 15 марта 2019 года на второй сессии Всекитайского собрания народных представителей 13-го созыва, и ввести его в действие с 1 января 2020 года. 《中華人民共和國外商投資法》已由中國第十三屆全國人民代表大會第二次會議於2019年3月15日通過，自2020年1月1日起施行。
5. O. Oqyulov, N. Imamov, SH. Ro‘zinazarov, B. Samarxodjayev, I. Rustambekov, Q. Mexmonov, E. Musayev, O‘. Sayidaxmedov, A. Tojiboyev, A. Ibragimova, A. Jumagulov – “Investitsiya huquqi” darslik
6. Vazirlar Mahkamasining “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklif tanlab olishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qarori

### **Internet saytlari:**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5649119>
2. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. <https://lex.uz/docs/-4664142>
4. [www.gratanet.com](http://www.gratanet.com)
5. <http://chinawindow.ru/china/legal-information-china/zakon-kitajskoj-narodnoj-respubliki-ob-inostrannyh-investitsiyah/>
6. <https://library-tsul.uz/category/investitsiya-huquqi/>